# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*


**2026-YIL / IYUN/6-SON, V-QISM**

Google Scholar

OpenAIRE

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE





ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*
*V-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

**Board of Experts:**
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

**Jurnalning ilmiyligi:**
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI ....12
**I. R. Berdikulova**

TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI ....16
**Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li**
**Turobova Hulkar Rustamovna**

O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....24
**Davletov Ikrom Raximberganovich**

VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI ....33
**Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich**

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ....38
**Абдуллаева М.Б.**

AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI ....44
**Murodov Sherzodbek Murod o'g'li**

RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI ....51
**Kalandarova Elnura Muzaffar qizi**

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH ....55
**Niyozov Zuxur Davronovich**
**Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО ....58
**Худойкулова Дилора Дилмуродовна**

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI ....64
**Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi**

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ....71
**Mavlyanova Dilobar Maxkamovna**

DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....77
**Karimova Dilafruz Sadriddin qizi**

МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ ....82
**Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI ....89
**Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna**
**Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi**

JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNI ....94
**Otarbayev Zamir Zairovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 100
**Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich**

ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА........ 107
**Дониёрова Зуҳрабону Алишер кизи**

TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI........ 113
**Xo'jamov Akbar Bahriddinovich**

KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI ........ 118
**Djumayev Askar Xaydarovich**

SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI ........ 123
**Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li**
**Qahhorova Nargiza Qahramonovna**
**Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li**
**Jamilov Firdavs Otabek o'g'li**

ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ........ 129
**Норкулов Хабибулло**
**Абдурасулова Шахзода**
**Бахриддинов Дилшодбек**

NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV ........ 135
**Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi**

SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI ........ 138
**Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich**

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ ........ 147
**Джуманов А.А.**

BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH ........ 157
**Masharipova Durdona Ulug'bekovna**

РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ ........ 164
**Джуманов А.А.**

DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI ........ 174
**Raxmanov Furqat Temirovich**

АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 179
**Ибрагимов Гайратжон Артикович**

TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ........ 186
**Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich**

SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI........ 192
**Shakarov Zafar Gafforovich**

URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI ..... 198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li
Uzoqov Rafiq O‘lmas o‘g‘li

INFRATUZILMA INVESTITSIYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI ..... 204
Jiyanov Laziz Najimovich

«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ..... 210
Курбанова Дилфуза Махсудовна

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ..... 217
Karimova Feruza Xamidullayevna

PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA’MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI ..... 221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich

FUQAROLAR MUROJAATLARI MA’LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI ..... 226
Inomov Daniyar Valijonovich

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR ..... 232
Niyozov Zuhur Davronovich
Xolmurotov Sardor
Haydaraliyev Avaz

YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL ..... 238
Tolibova Aziza To‘lqin qizi

BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME’YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR ..... 243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna

QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 247
Masharipova Sevara

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ..... 251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi

BALIQCHILIK TARMOG‘INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ..... 256
Iskandar Yunusov

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI ..... 262
Mirzanov Berdak Joldasbevich

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA’SIRI ..... 268
A’zamxo‘jayeva Nihol

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO‘RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH ..... 273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI ........ 278
**Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna**
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI MISOLIDA) ........ 284
**G.A. Norbo‘tayeva**

# YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI MISOLIDA)

**G.A. Norbo‘tayeva**
**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot intituti**
**O‘zbekiston tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi**

**Annotatsiya:** Yashil iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan maktabgacha ta’lim tizimi misolida nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati yoritilgan hamda ilmiy xulosalar umumlashtirilgan.
**Kalit so‘zlar:** ta’lim, maktabgacha va maktab ta’limi, ta’lim islohotlari, kasbiy tayyorgarlik, yashil iqtisodiyot, Qashqadaryo.
**Аннотация:** В условиях зеленой экономики проанализированы реформы, проводимые в системе образования Узбекистана, в частности на примере системы дошкольного образования. Раскрыты их теоретические основы, содержание и значение, а также обобщены научные выводы.
**Ключевые слова:** образование, дошкольное и школьное образование, образовательные реформы, профессиональная подготовка, зеленая экономика, Кашкадарья.
**Abstract:** This article presents a theoretical analysis of the reforms implemented in the education system of Uzbekistan under the conditions of a green economy, particularly through the example of the preschool education system. The essence and significance of these reforms are examined, and the main scientific conclusions are summarized.
**Keywords:** education, preschool and school education, educational reforms, professional training, green economy, Kashkadarya.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishlarda islohotlar zamon talablariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Shuningdek, ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar zamon talablariga mos ravishda rivojlanmoqda. Ta’lim tizimining integratsiya qilinishi va ta’limga investitsiya – bu zamonaviy dunyoda o‘ziga xos urfga aylangan hamda davlat va jamiyatning eng asosiy e’tibor qaratadigan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Zero, tom ma’noda ta’limga pul tikish kishilik jamiyati uchun foyda keltiradigan eng kerakli soha hisoblanadi. Har qanday soha ta’limdagi fundamental bilimlarga asoslanadi va rivojlanadi. Shu boisdan barcha davlatlar, jamiyatlar va jamiyat a’zolari ta’limga katta e’tibor qaratmoqda. Uzluksiz ta’limning birinchi va bosh bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimi esa alohida e’tibor qaratiladigan asos hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston hududida tarixdan mavjud bo‘lgan davlatlarning barchasida o‘ziga xos ta’lim tizimi mavjud bo‘lgan. Ta’limning ibtidoiy ko‘rinishlari, albatta, oilada yoshi kattaroq, tajribali va qobiliyatli oila a’zolari tomonidan olib borilgan hayotiy jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Keyinchalik ustoz-shogird, pir-murid va hokazo shakllarga o‘tib, sekin-astalik bilan jamoaviy ta’lim muassasalari ko‘rinishiga o‘ta boshlagan.

Maktabgacha ta’lim tarixi asrlar davomida turli jamiyatlarning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Turli madaniyatlarda va davrlarda maktabgacha ta’limga yondashuvlar turlicha bo‘lgan bo‘lsa-da, maqsad bir xil, ya’ni bolalarni maktabga tayyorlash, ularning ijtimoiy, kognitiv va jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirish edi.

Maktabgacha ta'lim tizimi tarixi qaysi davrlarga borib taqalishi to'g'risida turli qarashlar mavjud. Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim va Xitoy kabi qadim sivilizatsiyalarda hozirgi kabi ko'rinishga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan, albatta. Bu ko'pchilik olimlarning yakdil xulosasi hisoblanadi. Bolalarni maktabga (agar mavjud bo'lsa) va umuman hayotning keyingi bosqichiga tayyorlash ishlarida, jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda, ularga bilim, ko'nikma va qadriyatlarni yetkazishda asosiy rolni oila, jamoa va shu kabi ijtimoiy birliklar amalga oshirgan.

O'rta asrlarda ta'lim ko'pincha diniy soha va din asosida tashkil etiladigan tizim asosiga qurilgan edi. Bu davrda bolalarni ta'lim bilan qamrab olish juda past darajada bo'lib, maktabgacha ta'lim haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Ta'limning bunday ko'rinishi bilan faqat qirollar va nufuzli zodagonlarning farzandlari foydalanishgan deyish mumkin. Albatta, bu ham hozirgi tushunchadagi maktabgacha ta'lim tizimidan tubdan farq qilar edi.

Uyg'onish davri deb nomlanadigan ma'lum bir jarayon o'z navbati bilan turli hududlarda turli paytlarda amalga oshdi. Osiyoda ham, Yevropada ham bu bosqichda ta'lim tizimi sezilarli o'zgarishlarga, o'z o'rnida yaxshilanishlarga uchradi. Uyg'onish davrida bolalar ta'limiga e'tibor kuchaya boshladi. Ta'lim inson salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida qaralib, bolalar ta'limiga sarmoya kiritish urfga aylana boshlandi. Yosh bolalar uchun birinchi maktablar va shunga o'xshash muassasalar paydo bo'lib, u yerda ular dastlabki asosiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollana boshlandi.

XVIII asr oxiri va XIX asrlarga kelib turli hududlarda birinchi maktabgacha ta'lim muassasalari paydo bo'la boshladi. Bu muassasalarda asosiy yo'nalishlar o'yin faoliyati asosida jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan edi.

XX asrda maktabgacha ta'lim ilg'or mamlakatlarda yanada tizimli bo'la boshladi va davlat darajasida ahamiyat berila boshlandi. Ko'pgina mamlakatlar maktabgacha ta'lim standartlarini ishlab chiqdi va maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yaratdi. O'sha paytda bola rivojlanishi bo'yicha pedagogik tadqiqotlar faol rivojlandi va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan tadqiqotlar dunyo yuzini ko'rdi.

Tom ma'nodagi birinchi maktabgacha ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi) Germaniyada XIX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan. Aynan o'sha paytda nemis pedagogi Fridrix Fryobel ota-onalarga maktab yoshiga yetmagan bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda yordam beradigan turli o'yinlar orqali va majburiyatlardan holi bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasi tamoyillarini ishlab chiqdi. Aytish joizki, u tomonidan yaratilgan bazaviy qoidalar haligacha bu tizimning asosini tashkil etmoqda. Soha vakillarining aksari bu tizim asoschisi kim ekanligini bilmasa-da, lekin u yaratgan mexanizmdan samarali foydalanadi. Blankenburg shahrida 1839-yilda ochilgan birinchi "bolalar bog'chasi" bu tushunchaga asos soldi va bu termin keng tarqaldi. Uning muassasasi "bolalar bog'chasi" deb nomlangan va bu bejis emas edi. Nom bu davr uchun mos bo'lgan "Ma'rifatparvarlik" g'oyalari ruhida shakllangan bo'lib, bolalar tabiat in'omi sifatida, bir o'simlik bo'lib, parvarishga va e'tiborga muhtoj deb qaralgan. Shu sababdan ham "bolalar bog'chasi", ya'ni bolalar o'sadigan bog', makon sifatida e'tirof etilgan.

Shu tariqa maktabgacha ta'lim muassasalarining ilk namunalarini aynan shu voqea bilan bog'lashimiz o'rinli hisoblanadi. Bu jarayon dastlab butun Yevropa bo'ylab tarqalib, keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqaldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim muassasalarining vujudga kelishini faqat ta'lim maqsadlari bilan bog'liq deb qarash ham ma'lum ma'noda xato hisoblanadi. Chunki Jahon tarixida yangi davr deb ataladigan XV–XX asrlar, ma'lumki, kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi, tadbirkorlik ruhi va foyda uchun ishlab chiqarish tamoyillariga asoslangan edi. Bu o'z navbatida sanoatlashish va ishlab chiqarish sur'atlarining tez o'sishi bilan bog'liq edi. Ishlab chiqarishning o'sishi bilan ishchi kuchiga bo'lgan talab ortib borar edi. Erkaklar asosan og'ir sanoat va dehqonchilik sohalarida ko'proq mehnat qilar va ularning ish haqi ham o'z navbatida balandroq edi. Yengil sanoat va boshqa turli yo'nalishlarda arzon ishchi kuchi hisoblanadigan ayollar va bolalar mehnatiga talab yuqori edi. Tug'ilish soni yuqori va oilada yosh bolalarning ko'pligi ayollarning biron bir ish bilan shug'ullanishiga to'sqinlik qilar edi. Shu boisdan ham yuzaga kelgan iqtisodiy jarayonlar bolalar bog'chalarini tashkil etish, unda ma'lum bir sondagi ayollar katta sondagi bolalarni bir yerda to'plab, ularga g'amxo'rlik qilib turishini taqozo

etar edi. Mazkur masala maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishiga turtki bergan eng muhim sabablardan biri deb bemalol aytish mumkin. Jamiyat rivojlanib borib, turmush tarzi yaxshilanib borar ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarining mohiyati ham o'zgarib bordi. Ular bolalarga g'amxo'rlik qilib turadigan bir muassasa ko'rinishidan bir vaqtning o'zida ta'lim-tarbiya berish tendensiyasi tomon keta boshladi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim bola shaxsiyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydigan ta'limdagi bir bosqich hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul yoki arzonlashtirilgan maktabgacha ta'lim tizimi ishlab kelmoqda. Ularda joriy etilgan dasturlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, xususan, jismoniy, ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanish yo'nalishlarini bunga kiritish mumkin.

Sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sib borishi bilan, ta'kidlanganidek, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj ortib borar edi. Shu bilan birga, aholini ish bilan ta'minlash borasida SSSRda olib borilgan davlat siyosatining tub mohiyati ishsizlar sonini eng quyi darajaga tushirish hisoblanardi. Sobiq ittifoq respublikalarida bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish ko'rsatkichlari ham turlicha edi. Misol uchun, 1970-yillarda SSSR bo'yicha bu ko'rsatkich 37 % ni tashkil qilar, shundan Rossiya – 49 %; Ukraina – 38 %; Belorus – 30 %; O'zbekiston – 15 %; Qozog'iston – 30 %; Gruziya – 22 %; Ozarbayjon – 12 %; Litva – 37 %; Moldova – 22 %; Latviya – 37 %; Qirg'iziston – 18 %; Tojikiston – 11 %; Armaniston – 25 %; Turkmaniston – 19 %; Estoniya – 50 % ni tashkil qilar edi. 1980-yillarga kelib bu ko'rsatkich barcha respublikalar kesimida ancha ko'tarildi va 1988-yillarga kelib ittifoq bo'yicha 58 % dan yuqoriga ko'tarila olmadi. Bu paytga kelib, O'zbekistonda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish atigi 36 % ni tashkil qildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda eng muhim hisoblanadigan tizim bu – xalq ta'limi sohasi, ya'ni maktabgacha va maktab ta'limi bo'lib, mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarga alohida e'tibor qaratish eng oldi vazifalardan biri bo'lib qolgan edi. Zotan, o'zining ming yillik tarixiga ega va ayni paytda mustaqillikka endi erishgan mamlakat uchun hur fikrli, puxta bilimga ega, kasb-hunarli va ma'rifatli fuqarolar zarur edi. Chunki shu kabi fuqarolar bilangina mustaqillikni saqlab qolish va buyuk kelajakni qurish mumkin edi. Bunda eng avvalo bog'cha va maktab yoshidagi bolalardan boshlash samarali ekanligi aniqlandi. Sababi bu yoshdagi bolalar hali sotsialistik g'oyalar ta'siriga tushmagan va yozilmagan qog'oz kabi toza edi. Shu kabi sabablar tufayli ta'limda qilinishi kerak bo'lgan islohotlar kechiktirib bo'lmas xarakter kasb etdi. Islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagi qaroriga asosan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish dastlab huquqiy bazani mustahkamlashdan boshlanadi. Bu boradagi ilk huquqiy asos yuqoridagi hujjat bo'lib, keyinchalik, ya'ni 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Sovet davlati har jihatdan doimo qoloq va sifatsiz ta'lim tizimiga ega edi, deb ayta olmaymiz. Aytish mumkinki, ta'lim ancha rivojlangan va raqobatbardosh edi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklarning jamlanmasi yuzasidan ro'y bergan pastga qulashni mamlakat shakllangan dastlabki va tugash yillarida sodir bo'lgan hodisa sifatida qarash mumkin. Qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar avvalambor ta'limda oldin erishilgan yutuqlarni saqlab qolish va yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan edi. Qonunda ta'lim berish ilm va tarbiyadan iboratligi, mamlakatni ilmiy jihatdan yuksaltirish va har jihatdan barkamol avlodni shakllantirish maqsadini ko'zlashi ta'kidlangan. Unda fuqarolarning ta'lim olishi konstitutsiyaviy huquqi ekanligi ham alohida ta'kidlangan. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari ham belgilab olingan.

Qonunning ikkinchi bo'limi ta'lim tizimlari to'g'risida bo'lib, unda ta'lim – maktabgacha tarbiya; umumiy ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim; hunar-texnika ta'limi; o'rta maxsus ta'lim; oliy ta'lim; ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash; kadrlarning kasbkor malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, oiladagi ta'lim hamda mustaqil ta'limdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

Ushbu bo'limning 8-moddasi maktabgacha tarbiya bosqichiga qaratilgan va "Maktabgacha ta'limning vazifasi bola kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uning bilimga qiziqishini, madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishini o'stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan iboratdir" deb izohlangan.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 1992-yildagi shakli amaldagi qonundan bir qator jihatlarda farqlanishini qayd etib o'tish joiz. Avvalgi talqinda maktabgacha tarbiya bola kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uning bilimga qiziqishini, madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishini o'stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan iboratligi belgilangan. Shuningdek, maktabgacha tarbiya birinchi galda oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida olib borilishi ko'rsatilgan. Bunda birinchi o'rinda oilada olib borilishi ta'kidlanganligi ahamiyatlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aksari maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olinmagan mamlakat uchun bunday yondashuv to'g'ri bo'lgan, albatta. Amaldagi qonunda bu normalarning yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunga kelib maktabgacha ta'lim muassasalarining soni ancha ortganligi bu kabi normalarga ehtiyoj qoldirmagan bo'lishi mumkin. E'tiborli jihatlaridan yana biri oldingi qonunda maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarni maktabga tayyorlashni ko'zda tutishi qayd etilmagan. Zero, bu muassasalarning asosiy vazifalaridan biri bolalarni maktabga tayyorlashdir. Hozirgi qonunda bu

alohida ta’kidlangan va olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni nazarda tutishi qayd etilgan. Olib borilgan bu kabi islohotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini ko‘tarishga qaratilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limga yo‘naltirilgan O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlarni o‘rganish ta’lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish muhimligini bildiradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hukumat tomonidan maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta’lim sifatini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun yaxshi sharoitlar yaratib bermoqda. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va inklyuzivlikka e’tibor berish maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy jihatlariga aylanmoqda. Tadqiqotda aniqlangan ijobiy natijalarga qaramay, ushbu islohotlarni uzoq muddatli strategiya asosida olib borish, doimiy o‘rganish va taklif-tavsiyalar ishlab borish dolzarb hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini didaktik vositalar, ko‘rgazmali qurollar, raqamli ta’lim resurslari bilan ta’minlash ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

Hududlar, ya’ni Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotga oid ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng joriy etish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Best R. Exploring the spiritual in the pedagogy of Friedrich Froebel // International Journal of Children’s Spirituality. – 2016. – T. 21. – № 3–4. – S. 272–282.
2. Dyui D. Moya pedagogicheskaya vera // Istoriko-pedagogicheskiy jurnal. – 2014. – № 4. – S. 54–63.
3. Erik E. Detstvo i obshchestvo. – “Izdatelskiy dom” “Piter”, 2018.
4. Molchanov S. G. Detskiy sad: istoriko-etimologicheskaya retrospektiva // Pedagogicheskiy jurnal. – 2012. – № 2–3. – S. 76–94.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrgi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007
6. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi 636-XII-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/56432?ONDATE=23.07.1992%2000
7. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 463-I-son “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. https://lex.uz/ru/docs/-196944?ONDATE=24.09.2020

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz